

MILLIY VALYUTANING KURSI TEBRANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING HOZIRGI DAVRDAGI XUSUSIYATLARI

I. Q. Sirojiddinov

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Namangan muhandislik-qurilish instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada hozirgi davrda milliy valyuta kursiga ta'sir etayotgan omillar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, inflyatsiya, milliy valyuta, xorijiy valyuta, valyuta kursi, iqtisodiy o'sish, eksport.

АННОТАЦИЯ

В статье исследованы факторы, влияющие на курс национальной валюты в настоящем периоде.

Ключевые слова: экономика, инфляция, национальная валюта, иностранная валюта, валютный курс, экономический рост, экспорт.

ABSTRACT

The article examines the factors affecting the exchange rate of the national currency in the present period

Keywords: economy, inflation, national currency, foreign currency, exchange rate, economic growth, export.

Valyuta siyosati tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning ta'sirchan vositasi hisoblanadi. Uning asosiy printsiplari O'zbekiston Respublikasining 1993 yil may oyida qabul qilingan va dastlab 2003 yilda, so'ngra 2019 yilda qayta yangi tahrirda qabul qilingan "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonunida va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan. Markaziy bank tomonidan milliy valyuta kursining xorijiy valyutalarga nisbatan barqaror ushlab turilishi hamda pul-kredit va valyuta siyosatining samaradorligining oshirilishi ham to'lov balansining ijobiy holatda bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Valyuta kursi mamlakat ichki va tashqi iqtisodiyoti bilan o'zaro bog'liq bo'lib, uning o'zgarishi mamlakat iqtisodiyotiga va tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Valyuta kursi va ungi kelgusidagi holati tashqi iqtisodiy

munosabatlarni, ayniqsa tashqi savdoni rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Valyuta kursining o'zgarishi tashqi savdo samaradorligiga ta'sir qiladi.

Nazariy jihatdan va eng umumiy ravishda olinganda milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursi milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga, xalqaro miqyosda raqobatbardoshligiga asoslanadi. O'z navbatida, raqobatbardoshlik texnologik ustunliklarga va mehnat unumdorligiga tayanadi. Texnologik ustunlikka ega mamlakat yuqori naflilikka ega tovarni kamroq mehnat sarfi bilan jahon bozoriga taklif eta oladi va bu milliy valyutaga ustunlik beradi. Bu omillar uzoq muddatli xarakterga ega bo'lib, ularga erishilishi milliy iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirilishi orqali yuz beradi.

Shu bilan birga qisqa muddatli davrda bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlar valyuta munosabatlariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Umuman olganda, har bir uzoq muddatli davr qisqa muddatli davrlarning yig'indisidan iboratligi uchun qisqa muddatli davrda amal qilayotgan omillar ta'sirini inkor etish mumkin emas.

Uzoq muddatli davrda milliy valyutaning xalqaro miqyosdagi qadr-qiymati mamlakat jahon bozoriga raqobatbardosh tovarlarni taklif eta olishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan yuksak texnologiyali tovarlarni taklif etuvchilarda ustunlik mavjud. Birinchidan, bunday tovarlarni taklif etuvchilar deyarli barcha vaziyatlarda bozorda monopol mavqega ega bo'ladilar. Monopolist tovardan keladigan nafning ko'proq qismini o'zlashtirib, xaridorga nafning ozroq qismini qoldiradi. Natijada xaridor monopolistning ozroq mehnati uchun o'zining ko'proq mehnatini berishga majbur. Aks holda tovarga va undan keladigan nafga umuman ega bo'la olmaydi. Bu esa uzoq muddatli davrda milliy valyutaning qadrini pasaytiradi. O'zbekiston importining deyarli yarmi yuksak texnologiyali investitsion tovarlarga to'g'ri kelmoqda va ularni asosan monopolistik bozorlardan xarid qilinmoqda. Ikkinchidan, yuksak texnologiyalar sharoitida yuqori malakali mehnat qo'llanadi. Bunday mehnat vaqt birligida ko'proq yangi qiymat yaratadi, mehnat natijalarining nafiligi esa yana ham yuqori. Bu ham pirovardida milliy valyutaga uzoq muddatli ustunlikni ta'minlaydi.

Qisqa muddatli davrda milliy valyuta kursi o'zgarishlari eksportga to'sqinlik qilmaslik va imkoni boricha uni rag'batlantirish qanchalik darajada amalga oshirilayotganligiga (bu valyuta bozoridagi joriy taklifni belgilaydi) hamda import qanchalik darajada tejamli olib borilayotganligiga (valyuta bozoridagi joriy talab) bog'liq. Malakatdan kapitalning chetga chiqib ketishga intilishi (ayniqsa korrupsion boyliklarini tashqarida legallashtirib olish maqsadlarida) eksportdan tushumlarni kamaytiradi va xorijiy valyutaga talabni oshiradi. Shu nuqtai nazardan 2017 – 2021 yillarda mamlakatimizda milliy valyutaning dollarga nisbatan qadrsizlanishi sur'atlarining keskin pasayishi, bu sur'atlarning inflyatsiya sur'atlaridan bir necha

sekinroq bo'lganligi, fikrimizcha, korruptsiyaga ancha sezilarli choralar ko'rilayotganligi bilan bog'liq.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat byudjetining yuqori darajadagi kamomadi, uni qoplash uchun milliy valyutaning katta hajmlardagi emissiyasi giperinflyatsiyaga, milliy valyutaga ishonch susayishiga, iqtisodiyotdagi tranzaksiyalarda xorijiy valyutadan foydalanish hajmlari ortishiga olib keladi va milliy valyuta kursi keskin pasayadi. Iqtisodiyotning dollarlashuviga ko'p hollarda davlatning o'zi ham ko'maklashadi. Eng muhim tovarlar narxi dollarda belgilanadi, sal noyobroq resurslar milliy valyutaga sotilmaydi, milliy valyutani erkin tasarruf qilishni cheklovchi qoidalar joriy qilinadi. Natijada milliy valyutaning haqiqiy pulga xos funksiyalarni bajarish imkoniyatlari cheklanadi va bu uning qadrini pasaytiradi. Soliq yuki yuqori ekanligi va tadbirkorlik erkinliklariga byurokratik to'sqinlik kapitalning chetga chiqib ketishga intilishini kuchaytiradi. Bunday sharoitlarda korruptsiya kuchayadi, real moliyaviy nazorat esa deyarli olib borilmaydi.

Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari balanslashuvi, real makroiqtisodiy o'sishga erishishgina bunday salbiy jarayonlarni jilovlashga imkoniyat yaratadi. Resurslar bozorining erkinlashtirilishi va milliy valyutaga o'tkazilishi, bir tomondan, investitsion jarayonlarni jadallashtirsa, ikkinchi tomondan, xorijiy valyutaga talab tegishli ravishda kamayadi. Shuningdek, xorijiy investor o'z mablag'ining katta qismini so'mda sarflashiga to'g'ri kelishi valyuta bozoridagi taklifni kengaytiradi.

Kapitalning chetga chiqib ketishga intilishi kuchli paytlarda davlat eksport ustidan qattiq nazorat olib borishiga to'g'ri keladi. Lekin biznes muhitni yaxshilamasdan turib bu jarayonni qisqartirib bo'lmaydi. Kapital chetga xorijiy valyutada chiqib ketadi va bu valyuta bozoridagi talabni eksport-import munosabatlari taqozo etadigan chegaralardan tashqariga olib chiqadi. Qora bozorda xorijiy valyuta narxi oshirilishi sodir bo'ladi.

Kapitalning chetga chiqib ketishini oldini olish maqsadlarida o'rnatiladigan tartiblar aksariyat hollarda salbiy natija beradi. Masalan, tovarlarning faqat oldindan to'lov yoki to'lov to'la kafolatlangan to'lov shartlari bilan eksport qilinishi eksportchilarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini zaiflashtiradi, xarajatlarini oshiradi va ob'ektiv ravishda eksport tushumlarini kamroq bo'lishiga olib keladi. Eksportni markazlashtirishga intilish bundan ham jiddiyroq oqibatlarini keltirib chiqaradi. Monopolist eksportchilar ichki bozordagi xarid narxlarini sun'iy ravishda pasaytiradilar. Eksport tovarlarini bevosita ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvoli og'irlashadi. Buni paxta tolasi eksporti misolida yaqqol ko'rish mumkin edi. Paxta tolasi eksporti to'xtatildi, undan ishlab chiqariladigan arzon mahsulot eksporti davom etmoqda. Bu esa milliy valyuta qadrini mustahkamlay olmaydi. Monopoliyaga olib keluvchi tartiblarni meva-sabzovot eksportiga joriy qilishga urinishlar kuzatilmoqda.

Qisqa muddatli davrdagi valyuta kursi jiddiy tebranishlari zaminida inflyatsion sabablar va korrupsion sabablar yotishi mumkin. Inflyatsiyaning yuqori sur'atlari milliy valyuta qadrsizlantiradi, jilovlanishi esa bu jarayonni sekinlashtirishga imkon beradi. Inflyatsiya talab inflyatsiyasi sifatida sodir bo'lishi milliy valyutaning davlat byudjetining xarajatlarini qoplash uchun emissiya qilinishi bilan bog'liq. Shuningdek, jahon bozoridagi kon'yunkturaviy o'zgarishlar tufayli import qilinayotgan tovarlar baholarining o'sishi xorijiy valyutaga ehtiyojni oshirishi mumkin va bu valyuta kursiga ta'sir etadi (inflyatsiya import qilinishi).

Fikrimizcha, hozirgi paytda mamlakatimizda xarajatlar inflyatsiyasi dolzarbroq bo'lib turibdi. Bunday inflyatsiya resurslar bozori monopollashganligi, tadbirkorlikka byurokratik to'siqlar, bozorlarda erkin raqobatni cheklovchi omillar bartaraf etilmayotganligi kabilar bilan bog'liq. Oqibatda iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida xarajatlarning tez o'sishi sodir bo'ladi va korrupsion harakatlar uchun iqtisodiy shart-sharoitlar vujudga keladi. Korrupsiyaga qarshi kurash milliy valyuta qadrini oshirishda juda muhim ahamiyatga ega. 2017 yilning 2-yarmidan boshlab valyuta munosabatlarining erkinlashtirilishi, davlat xizmatlari ko'rsatishning yangi, antikorrupsion tizimi joriy etilishi, davlat xaridlari shaffofligi kuchaytirilishi, fikrimizcha, milliy valyuta qadrining oshib borayotganligida hal qiluvchi omillar bo'lmoqda.

Uzoq muddatli davrda inflyatsion tendentsiyalar zamirida noo'rin va o'zini oqlamaydigan xarajatlar yotadi. Masalan, tibbiyot xodimlarini ko'chalarni tozalashga yoki qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etilishi pirovardida tibbiyot xizmatlariga davlat ajratayotgan mablag'lar hisobidan qoplanadi, ya'ni bu xizmatlar amalda ko'rsatilmaydi. Talabalarni o'qitish o'rniga hasharlarga jalb etish ta'lim xizmatlari qimmatlashuvini bildiradi. Mahsulotlarga qilinayotgan xarajatlarning hisobotlarda ko'rsatilmasligi bu xarajatlar qilinmayotganligini bildirmaydi. Oxir-oqibatda xarajatlar ortganligini biz milliy valyuta kursi pasayishidan bilib olamiz.

Ma'lumki, 2017 yil sentyabr oyidan boshlab valyuta kursi erkinlashtirildi. Dollar kursi shu davrda 8150 so'mdan 2021 yil oxiriga qadar 10500 so'mgacha o'zgardi, ya'ni 25 foizga oshdi. Agar valyuta kursi faqat inflyatsiyaga bog'liq bo'lganda, dollarning kursi kamida 70 foizga ortishi lozim edi. Qisqa muddatli davrda ish kuchi eksporti bilan bog'liq valyuta tushumlari ham muhim rol o'ynamoqda. Masalan, 2022 yilda bunday tushumlar Namangan viloyatida 1 mlrd. dollarni tashkil etdi²⁴. Buning asosiy qismi so'mga aylantirilgan holda ishlatilali va viloyatning import ehtiyojlaridan ancha ortiq.

²⁴ <https://t.me/joinchat/VrtycexOkkcgDwk>

Fikrimizcha, hozirgi paytda valyuta munosabatlari rivojlanishidagi tendentsiyalarni birinchi navbatda quyidagi omillar belgilab bermoqda:

- eksport qoidalarining jiddiy ravishda erkinlashtirilishi (lekin ayrim yo‘nalishlarda monopolizm saqlanib qolmoqda);

- importni monopoliyadan chiqarish choralari ko‘rilayotganligi natijasida import tejamkorligi o‘zini namoyon etmoqda;

- biznes-muhit yaxshilanishi, maxsus sanoat zonalari, erkin iqtisodiy zonalar tadbirkorlik kapitalining mamlakat ichida investitsiyalanishini rag‘batlantirmoqda;

- tranzaksiyalar erkinlashtirilishi milliy valyutaning iqtisodiy sub‘ektlar uchun jozibadorligini oshirmoqda (pul muomalasi erkinlashuvi, valyuta ayirboshlanishi erkinlashuvi va bu borada korrupsiyaga barham berilishi, yirik kupyuralar muomalaga chiqarilishi va boshqalar);

- Harakatlar strategiyasi amalga oshirila boshlanishi bilan aholida iqtisodiy vatanparvarlik hissi real shakllana boshlashi.

Valyuta kursidagi qisqa muddatli o‘zgarishlarga tayanib uzoq muddatli qarorlar qabul qilinishi hamma vaqt ham o‘zini oqlamaydi. Umuman olganda, milliy iqtisodiyotda muayyan tovarlar narxlarini biron-bir tarzda xorijiy valyuta kursiga bog‘lab qo‘yish (avtomobil narxi bo‘ladimi, do‘kondagi maishiy elektronika bo‘ladimi va boshqalar) mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va iqtisodiy xavfsizligi nuqtai nazaridan mutlaqo noto‘g‘ri va iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlardan salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Milliy valyuta kursi barqarorligini ta‘minlab turish choralari makroiqtisodiy siyosatning o‘ta muhim tarkibiy qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Xalq so‘zi, 2022 yil 13 yanvar.
2. Ботирова, Р. А., Сирожиддинов, И. К., & Жураев, Э. С. (2020). Поддержка и стимулирование инвестиционных процессов в экономике в условиях коронавирусной пандемии. Экономика и социум, (5-1), 416-421.
3. Ботирова, Р. А., & Сирожиддинов, И. К. (2015). Роль коммерческих банков в финансовом оздоровлении предприятий. Молодой ученый, (5), 245-246.
4. Ботирова, Р. А., & Сирожиддинов, И. К. (2017). Социальная направленность инвестиционных процессов в Узбекистане. Молодой ученый, (41), 38-39.
5. Сирожиддинов, И. К., & Ботирова, Р. А. (2016). Представление финансовой отчетности в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности. Молодой ученый, (12), 1460-1461.

6. Сирожиддинов, И. К., & Ботирова, Р. А. (2016). Ускоренное развитие промышленности-основа структурных преобразований в экономике. Молодой ученый, (28), 546-548.
7. Сирожиддинов, И. К., & Ботирова, Р. А. (2014). Стимулирование развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане. Молодой ученый, (6), 486-488.
8. Сирожиддинов, И. К., & Ботирова, Р. А. (2018). Возможности развития экспорта фруктов и овощей в Наманганской области Узбекистана. Молодой ученый, (50), 174-176.
9. Abdujabborovna, B. R., Kutbiddinovich, S. I., & Anvarovich, K. A. (2020). Innovation as an important factor in the development of the agricultural sector of the region's economy. Journal of Critical Reviews, 7(5), 821-823.
10. Rahima, B., & Sirojiddinov, I. (2021). Social Orientation of Economic Development in a Pandemic. Design Engineering, 7611-7617.
11. Anvarovich, H. A., Abdujabborovna, B. R., & Kutbiddinovich, S. I. (2021). FOOD ORIENTATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION IN THE CONTEXT OF THE CORONAVIRUS PANDEMIC. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol, 27(2).
12. Sirojiddinov, I. Q., & Abdumalik o'g'li, M. M. (2022, June). SIGNS AND APPEARANCE OF ECONOMIC HELPLESSNESS. In Conference Zone (pp. 8-14).
13. Raxima, B., Ikromiddin, S., & Musaxon, I. (2021). Development Of The Real Sector Of The Economy In The Conditions Of The Coronavirus Pandemic. NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO, 2695-2699.
14. Ботирова, Р. А., & Сирожиддинов, И. К. (2018). Промышленное развитие-основа устойчивого экономического роста региональной экономики. Молодой ученый, (21), 229-231.
15. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. Dear Academicians & Research Scholars, 55.
16. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL BUSINESSES IN A PANDEMIC ENVIRONMENT. American Journal of Economics and Business Management, 4(3), 1-8.
17. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 34-39.

18. Abdulazizovich, K. U. (2022). IMPROVING METHODOLOGICAL APPROACHES TO FINANCIAL ASSET ACCOUNTING. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 56-62.
19. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. Мировая наука, (1), 299-302.
20. Ogli, I. S. H., & Oglu, O. I. A. Peculiarities of the Development of Industrial Production in Namangan Region. Volume, 9, 544-547.
21. Abdullayevich, A. O., & Abdullajanovich, U. T. Ibrogimov Sherzodbek Halimjon ogli.(2021). In Development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. Conference Zone (pp. 123-128).
22. Abdullayevich, A. O., & Abdullajanovich, U. T. (2021, December). DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN. In Conference Zone (pp. 123-128).
23. Abdullajanovich, U. T. (2021). THE MAIN DIRECTIONS OF DIVERSIFICATION OF EXPORTS OF INDUSTRIAL PRODUCTS ON THE BASIS OF LOCALIZATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 70-75.
24. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. Экономика и социум, (1), 48-52.
25. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2019). Profits of housekeeping and its development. TRANS Asian Research Journals, 8(4).
26. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. Интернаука, (21-5), 9-11.
27. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). THE ROLE OF ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS MANAGEMENT. Интернаука, (21-5), 20-22.
28. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debtor debt debt analysis. Мировая наука, (1), 100-105.
29. Xolmirzaev, U. A., Juraev, E., & Jamgirova, G. I. (2021). APPROACH TO ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS IN THE ENTERPRISE IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. Интернаука, (21-5), 17-19.
30. Холмирзаев, У. А. (2021, October). ҚИСКА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 396-399).

31. Xolmirzayev, A. X. (2021). RISK FACTORS AND UNCERTAINTIES IN THE ECONOMY. *Мировая наука*, (2), 24-27.
32. Юлдашев, К. М., & Холмирзаев, А. Х. (2019). Осуществление реализации механизма частного партнерства в Узбекистане. *Молодой ученый*, (51), 435-437.
33. Roxatalievich, S. B., Hakimovich, A. R., Mamadjanovic, Y. K., Xapizovich, H. A., & Vulturbayevich, M. B. (2020). The Results Of The Assessment Of The Investment Potential Of The Regions Of The Republic Of Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(3), 4428-4437.
34. Ишимбаев, Р. Н., & Холмирзаев, А. Х. (2021). ЦИФРОВИЗАЦИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Экономика и социум*, (7), 304-307.
35. Холмирзаев, А. Х., & Ишимбаев, Р. Н. (2021). СУЩНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ. *Экономика и социум*, (7), 520-526.
36. Kholmiraev, A. K. (2021). Criteria and directions of development of small business activities. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 730-735.
37. Yuldashev, Q. M., Tursunov, N. N., & Kholmiraev, A. X. (2020). Analysis of small business and private entrepreneurship in the development of the economy of the republic of Uzbekistan. *South Asian Journal of Marketing & Management Research*, 10(8), 60-67.
38. Abdullayevich, A. O. (2022). OPPORTUNITIES FOR SUSTAINABILITY OF SMALL BUSINESS ENTERPRISES ON THE BASIS OF IMPROVING THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 83-87.
39. Abdullayevich, A. O. (2022). THE DEVELOPMENT OF MANAGEMENT SCIENCE IN THE ANCIENT WORLD. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 33-39.
40. Арипов, О. А. (2012). Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солиш. Т.: Фан, 272.
- Арипов, О. А. (2015). Современное развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане. *Молодой ученый*, (22), 332-334.